

## HAZRAT NAVOIYNING ONA TILIMIZNING BUGUNGI KAMOLOTIGA QO'SHGAN KATTA HISSASI HAQIDA

**Ochilova Fayyoza Mansurovna**

Qashqadaryo viloyati Shahrizabz davlat pedagogika instituti magistri

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada ona tilimizning bugungi kamolotida hazrat Navoiyning katta hissa qo'shgani va ul zotning birgina "Muhokamat-ul lug'atayn" asari turkiy tilning boshqa tillardan afzal xususiyatlarini ko'rsatishda muhim manba sanalishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** adabiyot, masnaviy, dostonnavislik, timsol, ma'naviy, xamsanavislik, an'ana va o'ziga xoslik, badiiy mahorat, obraz, monografiya.*

Umuman olganda til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to'g'ri kelib, tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi, jumladan so'z turkumi va gap bo'lagi, tilning tabiati, til belgisining ma'noda aloqadorligi, mantiqiy, gramatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri, sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi kichik sistemaning katta sistema tarkibiga kirishi, ular o'rtasida juda zich aloqa mavjudligi, bu aloqasiz, strukururasiz yaxlitlikning, yani tilning o'zi bo'lmasligi hamda unga yondashuvda ham doimo qadimdan boshlab sistema sifatida yo'l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi qamrab olinadigan bo'lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi.

Ma'lumki, Navoiyga qadar siyosat, ilm-fan va adabiyotda arab va fors tillarining mavqei turkiy tilga nisbatan ancha yuqori edi. Shu sababli turkiy qavmga mansub kishilar davlat ishlarini, olimlar ilmiy asarlarini, shoirlar she'rlarini asosan forsiyda bitishgan. Hatto Navoiy ham ilk ijod namunalarini shu tilda bitgan. Ammo, keyinchalik

asosiy e'tiborni ona tilda ijod qilishga qaratgan buyuk mutafakkir tilimizning g'oyatda ulug' va betakror ekanligini anglab yetadi.

Navoiy dunyodagi tillarning xilma-xilligini hayrat ila bayon etadi."Yetti iqlimning har birida qancha-qancha mamlakat, har bir mamlakatda qancha shahru qishloq, har bir dashtda, har bir orol yoki sohillarda qancha-qancha qabilalar istiqomat qiladi. Har bir toifa o'z tili va lahjasida so'zlaydi".

Shundan so'ng muallif arab, fors, hind va turk tillarini eng qadimiy, asl tillardan ekanini ta'kidlab, har birining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Boshqa tillarning ildizi shu uch tilga borib taqalishini aytadi.

Navoiy tilga olgan bu gipoteza bugungi antropologiya va irqshunoslik fanlari nuqtai nazariga ham qaysidir ma'noda mos keladi. Ilmiy nazariyaga ko'ra, dunyo aholisining 90 foizdan ortiqrog'ini yevropeoid, mongoloid va negroid irqi vakillari tashkil qiladi.

Navoiy e'tiborini bevosita turkiy va forsiy tillar muhokamasiga qaratadi. Garchi o'sha davrda forsiy til mavqey jihatdan ustun bo'lsada turkiy tilning imkoniyatlari ancha keng bo'lgan. Navoiy bunga juda ko'p misollar keltiradi. Jumladan, ulug' mutafakkir turkiy tildagi yuzta fe'lni keltirib o'tadiki, ularni forsiyda ifodalash imkoni bo'lmagan. Bu fe'llarning aksariyati zamonaviy tilimizda keng ishlatiladi. Masalan: quruqshamoq, ixranmoq, aylanmoq, ovunmoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, qizg'anmoq, siylanmoq, tanlamoq, qimirlamoq, sig'inmoq, yalinmoq, indamoq, sipqormoq, chidamoq, tuzmoq, qadamoq, bichmoq, ko'ndirmoq va hokazo. Forsiy tilda bu fe'llar ma'nosini ifodalash uchun bir qancha so'z yoki arabiy lafzlardan foydalanish talab etiladi.

Shuningdek, Navoiy birgina yig'lamoq fe'lining tilimizda bir qancha shakli (siqtamoq, yig'lamsinmoq, ingramoq, singarmoq, o'kirmoq) borligini aytib, ularning biriga she'riy misollar keltiradi. Shoir qovoq (ko'z va qosh orasi), chaqmoq (chaqin), ildirim (momoqaldiraq), meng (xol) singari so'zlarni ham forsiy muqobili yo'qligini aytadi. Shuningdek, turkiy tilda qarindoshlar nomi ham xilma-xil. Masalan, turkiy

tildagi og‘a va ini (aka-uka) Forschada “birodar”, egachi va singil (opa-singil) “hohar” deyiladi.

Navoiy tildagi bu tafovutlar haqida so‘z yuritarkan, o‘z tili qolib o‘zga tilni afzal ko‘ruvchi shoiru fozillarga qarata “turk tilining jomiiyati muncha daloil bila sobit bo‘ldi, kerak erdikim bu xalq orasidin paydo bo‘lg‘on tab’ ahli salohiyat va tab’larni o‘z tillari turg‘och, o‘zga til bilan zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi” deya ularga dashnom bergan bo‘ladi. U forsiy tilda ijod qilgan Abulqosim Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Sa‘diy Sheroziy singari ulug‘ shoirlar ijodidan bahramand bo‘lgani, buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy bilan yaqin munosabatda bo‘lganini iftixor bilan qayd etadi.

Shoirning bu risolani bitishdan maqsadi bir tilni ikkinchisidan ustun qo‘yish emasdi. Aksincha, fors va arab tillari soyasida qolib, hatto turkiy qavmga mansub shoiru hukmdorlar tomonidan ham yetarlicha e‘zozlanmagan, kamsitilgan ona tilining qadru qimmatini yuksaltirmoq edi va bunga musharraf bo‘ladi.

## **ADABIYOTDA NAVOIY ASARLARINING FORS – TOJIK ADABIYOTIGA TA’SIRI**

XVI asr fors-tojik adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi Badriddin Hiloliy Sharq masnaviychiligi, dostonnavisligi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning “Shohu gado”, “Sifot ul-oshiqin” va “Layli va Majnun” dostonlarida fors-tojik mumtoz adabiyotining masnaviy ustalari qatorida Alisher Navoiy dostonlarining ham muayyan darajada ta’sirini kuzatish mumkin. Xususan, shoirning “Layli va Majnun” dostonidagi Layli timsoli aynan Alisher Navoiy yaratgan obrazga yaqin turishi Hiloliy ijodini monografik planda tadqiq etgan K. Ayniy ishlarida ham qayd etiladi. Olimning ta’kidlashicha, salaflar ijodidagi talqindan farqli o‘laroq, Hiloliy talqinida Layli o‘z muhabbatini shunchalik qattiq himoya qiladiki, unga uylanmoqchi bo‘lgan yigit niyatidan voz kechishga majbur bo‘ladi. Ushbu epizodni qiyosiy tahlil etish asnosida olim quyidagicha xulosa chiqargan[1]: (Butimsol faqat Navoiyning Laylisigagina nisbatan yaqindir. Zero u (Navoiy yaratgan Layli timsoli) Ibn Salomga nasib etmaslik uchun o‘ziga xanjar urishga ham tayyor. Navoiy va Hiloliy qahramonlarini

yaqinlashtiradigan xususiyat o‘z yoriga bo‘lgan ishq va sadoqati yo‘lida qahramonlik ko‘rsatishga tayyor ekanligidir). Demak, Badriddin Hiloliyning “Layli va Majnun” dostoni muqaddimasida shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar qatorida Alisher Navoiy va uning dostoni alohida tilga olinmagan bo‘lsa-da, Layli obrazining xarakter chizgilarini yaratishda muallif aynan Alisher Navoiy yaratgan obraz va uning tabiatidan ijodiy ta’sirlanganligini qayd etish mumkin.

XVI asr fors-tojik adabiyotida xamsanavislik an’anasining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri safaviylar sulolasi vakili Shoh Tahmasp davrida yashab, Abdiy va Navidiy taxalluslari bilan ijod etgan forsiyzabosh shoir Abdibek Sheroziydir. O‘z ijodiy faoliyati davomida uchta “Xamsa”, aniqrog‘i, uchta beshlik yaratgan shoir Abdiyning dastlabki “Xamsa”si Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy asos solgan adabiy an’ana qonuniyatlariga muvofiq ijod etilgan.

Ganjaga jonbaxsh she’r (nazm) jo‘natdim, bu bilan go‘yo Nizomiyni qayta tiriltirdim. Bunday jozibador va yangicha so‘zlar bilan Dehlida Xusrav (Dehlaviy) maqtoviga sazovor bo‘lsam (ajab emas). Bu (asarlar) ma’nolar gulzori bo‘lgan Xurosonga ham tuhfadir. Shoirning deyarli barcha dostonlarida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, ba’zi asarlarida Abdulloh Hotifiy kabi xamsanavis shoirlarga yuksak ehtirom ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, uning asarlarida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga ham murojaat etilganligi e’tiborga loyiq holatdir.

Abdiyning «Mazhar ul-asror» («Sirlarning namoyon bo‘lishi») dostoni o‘n beshinchi maqoloti ilm va johillik haqida bo‘lib, unga Shayboniyxonning Xurosonni qo‘lga kiritganligi haqidagi hikoyat ilova qilinadi.

Hikoyatda aytilishicha, Muhammad Shayboniyxon Xuroson va Hirotni qo‘lga kiritib, Sulton Husayn taxtiga o‘tirgach, Hirotning eng mohir hunar egalari, olimlari, shoirlari asarlarini olib kelishni buyurdi. Xattotlar sultoni Sulton Ali Mashhadiyning kitobatlari, Kamoliddin Behzodning suratlari hamda Alisher Navoiyning asarlarini unga olib kelishadi. Biroq u dunyo madaniyatining durdona asarlariga qalam tekkizish, isloh qilishga kirishadi:

She'ri Navoiy chu rasidi ba go'sh,  
Xosti az ta'nazijonashxuro'sh.  
Kardaashisloh dar on anjuman,  
Soxtaashchunsuxanixeshtan.

Navoiyning she'rlari qulog'iga yetgach, ta'nadan joniga iztirob soldi. U anjumanda, majlisda (Navoiy she'rlarini) isloh qilishga kirishdi. Bu bilan u (Navoiy she'rlarini) o'zinikiga o'xshatib qo'ydi. Hikoyatda Alisher Navoiyning turkiy she'riyatda tengsiz ijodkor ekanligi e'tirof etiladi. Bu borada, ayniqsa, shoirning xulosasi e'tiborga molik:

Zog' chu dar bog'baroradxuro'sh,  
Nag'maibulbulnatavon kard go'sh.  
Zog' bog'da qichqirishni boshlasa,  
bulbul navosini eshita olmaydi.

Navoiy she'riyatining bulbul navosiga qiyoslanishi bejiz emas, albatta. Mazkur e'tirof ikki jihatdan ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bu misralar Alisher Navoiy iste'dodi, ijodiy mahorati nafaqat turkiy zabon, balki forsiy zabon xalqlar orasida ham XVI asrdayoq katta shuhrat taratganligiga yana bir dalil. Ikkinchidan, Abdibek Sheroziy Alisher Navoiy ijodi bilan yaxshi tanish bo'lib, o'z «Xamsa»sini yaratishda Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy, Hotifiy asarlari singari Alisher Navoiy «Xamsa»sidan ham ma'lum darajada ilhomlangan.

### ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 8-tom. – T.: Fan, 1991. 47-bet.
2. Ragimov A. Jizn i tvorchestva Abdi-beka SHirazi // Abdi-bek SHirazi. Madjnun i Layli. – M.: Nauka, 2016. S.4.
3. Ayni K. BadriddinXiloli. – Stalinabad:Tadjikgosizdat, 2017, str. 138.
4. Tursunov U. O'rinboyev B. "Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili tarixi" Samarqand.